

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**KAYUMOV SHOXRUX SHAROF O'G'LI**

**TEMIR YO'LLARNING STANSIYA VA YUK ISHLARINI  
TASHKIL ETISH TRANSPORT JARAYONLARI  
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Kayumov Shoxrux Sharof o‘g‘li**

Temir yo‘llarning stansiya va yuk ishlarini tashkil etish transport jarayonlari  
texnologiyasini takomillashtirish..... 3

**Каюмов Шохрух Шароф угли**

Совершенствование технологии транспортных процессов в организации  
станционных и грузовых работ железных дорог ..... 21

**Kayumov Shokhrukh Sharof ugli**

Improving the technology of transport processes for organising station and  
freight operations of railways ..... 40

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 43

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**KAYUMOV SHOXRUX SHAROF O'G'LI**

**TEMIR YO'LLARNING STANSIYA VA YUK ISHLARINI  
TASHKIL ETISH TRANSPORT JARAYONLARI  
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3751 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rasulov Marufdjan Xalikovich**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Raxmangulov Aleksandr Nelyevich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Maxkamov Alimjon Xamdovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat texnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi PhD.15/31.08.2022.T.73.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 19-aprel soat 11<sup>00</sup> daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: [rektorat@tstu.uz](mailto:rektorat@tstu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (234-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 2-aprel kuni tarqatildi.  
(2025-yil 2-apreldagi 62-raqamli reyestr bayonnomasi).



**J.F. Kurbanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
t.f.d., professor

**Sh.M. Suyunbayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
t.f.d., professor

**D.X. Baratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar rais o'rinbosari,  
t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda ortish-tushirish, ta'mirlash ishlarini kompleks optimallashtirish darajasini oshirish, vagonlarni stansiyalarda ortiqcha turib qolish vaqtini qisqartirish va texnologik jarayonlarni tezlashtirish orqali transport korxonalari, shu jumladan temir yo'l transporti ishining samaradorligini va mehnat unumdorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jahon miqyosida ortish-tushirish ishlarining mexanizatsiyalash darajasi 20-30%<sup>1</sup> tashkil qilishini inobatga olsak, yuklarni yetkazib berish tizimlarining samaradorligini oshirish maqsadida vagonlar keladigan va jo'natiladigan stansiyalarda ombor ishlarini avtomatlashtirish zarurati tug'iladi. Shu nuqtai nazardan, tashilayotgan yuklarning saqlanishini, korxonada xodimlarining shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va sog'lom mehnat sharoitlarini yaratish masalalarini hal qilish imkonini beruvchi magistral va sanoat temir yo'l transportida yuk amallari texnologik jarayonlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda temir yo'l transportining raqobatbardoshligini oshirish va mijozlarga yanada sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida magistral va sanoat temir yo'l transporti korxonalari o'rtasida o'zaro hamkorlikni optimallashtirish, temir yo'l transportini me'yoriy, huquqiy, shuningdek, texnologik jihatdan tartibga solish masalalarini hal qilish, sanoat transporti obyektlariga xizmat ko'rsatishda tutash stansiyalarni modernizatsiya qilish, ularning funksional ishonchligini oshirish, vagonlarning turib qolishini minimallashtirish va infratuzilmaning o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, birinchidan magistral transportda stansiya ishlarini tashkil etish texnologik jarayonlarini va ikkinchidan sanoat korxonalaridagi yuk amallarini takomillashtirish, shuningdek noumumiy foydalanish yo'llariga xizmat ko'rsatish usullarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, harakatlanuvchi tarkiblarning amallar orasidagi ortiqcha turib qolish vaqtining oshishiga va kam malakali, og'ir jismoniy mehnat talab qiluvchi qo'lda bajariladigan ishlarni kamaytirish imkonini beradigan yuk obyektlariga vagonlarni uzatish optimal ketma-ketligini aniqlash bo'yicha hisob-kitoblarni avtomatlashtirish usullarini ishlab chiqish va kichik mexanizatsiya vositalari yordamida yuk amallarini jadallashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda turli sohalarni rivojlantirish, xususan, magistral va sanoat temir yo'l transportlari, yuklarni kafolatlangan yetkazib berishni ta'minlash va transport xarajatlarini minimallashtirish bo'yicha keng ko'lamlil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish ..., transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish ..., transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish ..., xavfsizlik,

---

<sup>1</sup> [https://www.iupr.ru/\\_files/ugd/b06fdc\\_202bf7439bb24d709fd4bf0ddf1cea27.pdf?index=true](https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_202bf7439bb24d709fd4bf0ddf1cea27.pdf?index=true)

savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish”<sup>2</sup> kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, xususan, umumiy va noumumiy foydalanishdagi temir yo‘l transportlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, tutash stansiyalarda vagonlarning ortiqcha turib qolishini minimallashtirgan holda ularni qayta ishlashni tashkil etish masalalarini tadqiq etish, yuk frontlariga uzatish texnologiyasini maqbullashtirish va ishlab chiqarishda tejamkorlik tamoyillarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi “Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-220-sonli Farmoni, 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-sonli, 2023-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli va 2025-yil 27-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-28-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Temir yo‘l transportida yuk stansiyalari va sanoat korxonalarining shoxobcha yo‘llari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik bo‘yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar yetakchi mamlakatlarning ilmiy markazlari, universitet va ilmiy-tadqiqot institutlarida, jumladan: Massachusetts Institute of Technology (AQSh), Newcastle Centre for Railway Research University (Buyuk Britaniya), “Szyao Tong” Shanxay universiteti (Xitoy), Ecole des Ponts ParisTech (Fransiya), Technische Universitat Carolo-Wilhelmina zu Braunschweig (Germaniya), Transport Research Institute (Litva), Imperator Aleksandr I nomidagi Peterburg davlat temir yo‘l universiteti, Rostov davlat temir yo‘l universiteti (Rossiya), Abilkas Saginov nomidagi Qarag‘anda texnika Universiteti (Qozog‘iston), Toshkent davlat transport universiteti (O‘zbekiston) va boshqalarda olib borilmoqda.

Transport tizimlari faoliyatini takomillashtirish va samarali muvofiqlashtirish jumladan, tashish jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida avtomatlashtirilgan o‘zaro hamkorlik modellarini formallashtirish masalalari Uwe Clausen, Maik Rotmann, Xuefei Li, Maoxiang Lang, Jin Guo, Pei-yan Yun, Joon-Young Ko, Jae-Young Park, A.N. Raxmangulov, N.V. Pravdin, V.V. Baginova, P.A. Kozlov,

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni

M.I. Shmulevich, N.D. Adilova, Y.K. Autov, P.N. Mishkurov, T.A. Nechay, O.N. Chislov, A.S. Xmelev va boshqa mualliflar ishlarida ochib berilgan.

O‘zbekiston Respublikasida yetkazib berish zanjirida yuk tashish samaradorligini optimallashtirish tadqiqotlari, shuningdek, magistral temir yo‘l va sanoat transportining o‘zaro hamkorlik tamoyillari va ularning ilmiy asoslariga K.T. Xudayberganov, E.T. Tuychiyev, S.M. Jumaboyev, R.Z. Nurmuhamedov, M.X. Rasulov, S.K. Xudayberganov, Sh.M. Suyunboyev, J.R. Qobulov, M.N. Masharipov, G.R. Ibragimova, N.K. Tursunbayeva va boshqa mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida alohida e‘tibor qaratilgan.

Biroq, avval bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarida sanoat korxonalarini va magistral temir yo‘l transporti o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, xususan, nouumiy foydalanishdagi shoxobcha yo‘llarda yuk amallarini tashkil etishda transport jarayonlari texnologiyasiga vagon oqimlari notekisligining ta’sir qilish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli, vagonlarni yuk frontlariga uzatish-olib chiqish jarayonlarini optimallashtirish, hamda kichik mexanizatsiya qurilmalaridan foydalangan holda yuk amallarini jadallashtirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan 131-sonli “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning Bekobod stansiyasi va “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ o‘zaro hamkorlik texnologik jarayonini ishlab chiqish” (2019-y.), 2303-01/03/06/2019-sonli “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJni yangi logistik markazi terminallarining qayta ishlash qobiliyatini tadqiq etish” (2019-2020-y.) va 47-sonli “Samarqand kimyo kompleksining ortish-tushirish, qabul qilish-jo‘natish yo‘llari, peregonlarini rivojlantirish va tortuv harakat tarkiblaridan samarali foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish” (2022-y.) mavzusidagi xo‘jalik shartnomalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** temir yo‘llarning stansiya va yuk ishlarini tashkil etish transport jarayonlari texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

temir yo‘l transportida yuklarni yetkazib berish tizimida stansiya va yuk ishlarini tashkil etish masalalarining zamonaviy holatini tahlil qilish;

vagon oqimlari sutkalik notekisligini vagonlarning yuk amallari jarayonida turib qolishiga ta’sir qilish darajasini belgilash usulini ishlab chiqish;

yuk obyektlariga vagonlarni uzatish-olib chiqishning optimal ketma-ketligini aniqlash usuli, algoritmi va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish;

temir yo‘l yarim ochiq vagonlarining pastki lyuklarini yopish qurilmasini ishlatish parametrlarini aniqlashning matematik modeli va usulini ishlab chiqish;

yuk amallarini jadallashtirish usulining yuklarni yetkazib berish muddatlarini tezlashtirishga ta’sirini asoslash va uni amaliy joriy etish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida temir yo‘l transportining sanoat korxonalarini va magistral temir yo‘l stansiyalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida temir yo‘l stansiyalari va sanoat korxonalari temir yo‘l transportining o‘zaro hamkorlik jarayonlari olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida statistik va tizimli tahlil, kuzatishlar, korrelyatsion-regression tahlil, to‘plamlar va matematik kombinatorika nazariyasi usullari hamda kinetik energiyaning o‘zgarish teoremasidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

vagon oqimlarining sutkalik notekisligining vagonlarning turib qolishiga ta’sirini hisobga olgan holda, vagon aylanishini bashorat qilishning ko‘p omilli modeli yordamida ko‘rsatkichlar bog‘liqligini aniqlash uchun ko‘p o‘lchovli obyektlarni korrelyatsion-regression tahlil qilish usuli ishlab chiqilgan;

yuk obyektlariga vagonlarni uzatish-olib chiqishning optimal ketma-ketligini aniqlash usuli texnologik amallarni bajarishni kutish vaqtini minimallashtirish asosida yuk frontlari sig‘imi va manyovr lokomotivlari parkini hisobga olgan holda to‘plamlar nazariyasidan foydalanib ishlab chiqilgan;

temir yo‘l yarim ochiq vagonlari pastki lyuklarini yopish qurilmasini ishlatish parametrlarini aniqlashning matematik modeli yuklarni ko‘tarishda mexanizatsiyalashgan usulga qo‘yiladigan talablarni hisobga olib, kinetik energiyaning o‘zgarish teoremasi asosida ishlab chiqilgan;

sanoat korxonasi va tutash stansiyasi o‘zaro hamkorligi jarayonida temir yo‘l yarim ochiq vagonlari pastki lyuklarini yopishda kichik mexanizatsiya vositalaridan foydalanishning yuklarni yetkazib berish muddatlari va ishchilarning mehnat unumdorligiga ta’siri asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

manyovr ishlarini tashkil etish tizimlarini integratsiyalash, rejalarni tezkor yangilash va turib qolishlarni bashoratlash, rejalashtirishda dinamik o‘zgarishlar sharoitida moslashuvchanlikni ta’minlash imkonini beruvchi yuk obyektlariga vagonlarni uzatish-olib chiqishning ketma-ketligini avtomatlashtirilgan tarzda hisoblash algoritmi va dasturiy majmua ko‘rinishidagi instrumental vositalari ishlab chiqilgan;

temir yo‘l yarim ochiq vagonlarining pastki lyuklarini yopish uchun qurilma sifatida qo‘lda ishlaydigan barabanli lebyodka LPO-23ga pasport va foydalanish bo‘yicha qo‘llanma ishlab chiqilgan (2023-yil 20-apreldagi O‘zbekiston Respublikasining UZ.SMT.01.0068.91221878-sonli muvofiqlik sertifikatini);

temir yo‘l yarim ochiq vagonlarining yuk amallari tugagach ularni tozalanishidan so‘ng pastki lyuklarini sertifikatlangan qurilma yordamida yopish usuli ishlab chiqildi (2023-yil 15-dekabrda 8227-sonli foydali modelga patent).

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy uslubiyot va usullardan foydalanilganligi, temir yo‘l yarim ochiq vagonlarining pastki lyuklarini yopish uchun yangi ishlab chiqilgan qurilmaning kinetik energiyaning o‘zgarish teoremasiga tayangan holda harakat vaqti va tezligini aniqlashga doir hisob-kitoblari amalga oshirilganligi, shuningdek, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yuk obyektlariga vagonlarni uzatish-olib chiqishning optimal ketma-ketligini aniqlashda to‘plamlar nazariyasidan foydalangan holda, yuk frontlarining sig‘imi va manyovr lokomotivlar parkini hisobga olib vagonlarni taqsimlashning barcha mumkin bo‘lgan kombinatsiyalariga asoslanib vagonlarning turib qolish vaqtini kamaytirish, inson omilining texnologik jarayonlarga ta’sirini minimallashtirish va temir yo‘l tashishlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan usulning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati harakatlanuvchi tarkiblarning turib qolish vaqtlarini qisqartirish, ishchilarning mehnat unumdorligini oshirish va yuk amallarini xavfsizlik qoidalariga muvofiq tashkil etish imkonini beruvchi yuk frontlarining sig‘imi va foydalanilayotgan manyovr lokomotivlar parkiga bog‘liq ravishda, yuk obyektlariga xizmat ko‘rsatishning optimal ketma-ketligini aniqlash bo‘yicha qaror qabul qilishni avtomatlashtirish hamda yarim ochiq vagonlarning pastki lyuklarni yopish uchun qurilma yordamida yuk amallarini jadallashtirish asosida sanoat temir yo‘l transporti korxonalarini va tutash stansiyalar o‘zaro hamkorlik texnologiyasi qo‘llanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Temir yo‘llarning stansiya va yuk ishlarini tashkil etish transport jarayonlari texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

to‘plamlar nazariyasidan foydalanib, yuk frontlarining sig‘imi va lokomotivlar parkini hisobga olgan holda texnologik amallarni bajarishga kutish vaqtlarini minimallashtirishga asoslangan vagonlarni yuk obyektlariga uzatib-olib chiqishning optimal ketma-ketligini aniqlash usuli Toshkent mintaqaviy temir yo‘l uzelliga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi transport vazirligining 2025-yil 10-fevraldagi 4/E198-sonli ma’lumotnomasi). Vagonlarni yuk obyektlariga uzatishni rejalashtirishni avtomatlashtirilgan natijasida bir vagon uzatmasida 12 daqiqa tejash imkoniyatini yaratgan, bu esa vagon aylanmasini 48 daqiqa tezlashtirishga olib kelgan va 266,8 mln. so‘m iqtisodiy samaraga erishish imkonini bergan;

temir yo‘l yarim ochiq vagonlarining pastki lyuklarini yopish usuli, temir yo‘l yarim ochiq vagonlari pastki lyuklarini yopish qurilmasini ishlatish parametrlarini aniqlashning matematik modeli “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJda (“O‘MK” AJ) joriy etilgan (“O‘MK” AJning 2025-yil 10-fevraldagi 01/05-01-01/195-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu model bo‘yicha tajribalarning natijalariga ko‘ra, yarim ochiq vagonlar pastki lyuklarini mexanizatsiyalashgan usulda yopish orqali vagonlarni uzatishlar soni 50% va tegishli amallarni bajarish vaqti qo‘lda bajarilish usuliga nisbatan qisqarib hamda vagonlarni tozalashda band xodimlarning mehnat unumdorligi 35% oshgan, bu esa 351,3 mln. so‘m iqtisodiy samaraga erishish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlar, shu jumladan 6 ta xorijiy, (shundan 3 ta *Scopus* bazasiga kiruvchi to‘plamda) va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqolalar, jumladan 6 ta respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda va 2 ta boshqa ilmiy jurnallarda chop etilgan. Shuningdek 1 ta foydali model uchun patent va 2 ta EHM dasturiga guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil etadi.


## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, o'rganilayotgan muammoning joriy holati tahlil etilgan, tadqiqotning asosiy maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, uning obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublikada fan va texnika rivojlanish ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi bayon etilgan, amaliy natijalari va ilmiy yangiligi bayon etilgan, ularning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, ilmiy tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy etishga oid, shuningdek chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yuklarni temir yo'l transportida yetkazib berishni tashkil etish nazariyasi va amaliyotining zamonaviy holatini tahlil qilish”** deb nomlangan birinchi bobida temir yo'l transportida yuk yetkazib berish tizimining mavjud holati o'rganilgan, yuk tashish jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy tajriba umumlashtirilgan, transport jarayonlari texnologiyasini takomillashtirish sohasidagi ilmiy yondashuvlar tadqiq qilingan, stansiya va yuk tashish ishlarini tashkil etishda mehnat xavfsizligi sharoitlari tahlil qilingan.

Temir yo'l yuk tashishlarining sifati va samaradorligi, jumladan, yuklarni yetkazib berish muddatlariga rioya etish ishlab chiqaruvchilar va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuklarni yetkazib berish muddatlari ham tashuvchi, ham yuk egasining transport majburiyatlarini bajarilish darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Tashishga sarflangan vaqt davomiyligi temir yo'lning ish samaradorligi, harakatlanuvchi tarkib aylanmasining tezlashishi va ba'zi hollarda tashilayotgan yuklarning saqlanganligi bog'liq bo'ladi.

Vagon aylanmasining elementlar bo'yicha taqsimoti shuni ko'rsatadiki, vagon aylanmasi tarkibida yuk amallariga sarflanadigan vaqt 39% dan 44% gacha oshgan, bu esa shoxobcha yo'li va tutashish stansiyasi o'rtasidagi ishi muvofiqlashtirilmaganligi oqibatida amallararo turib qolishlarning ko'payishiga olib kelgan (1-rasm). Shu bilan birga, “O'zbekiston temir yo'llari” AJ (“O'TY” AJ) yuk vagonlari parki tarkibining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, vagonlar turiga bog'liq ravishda parkning o'rtacha eskirish darajasi 62-90%, vagonlar parki tanqisligi esa 12,9% tashkil etgan. Bu esa temir yo'l transportining raqobatbardoshligi va jozibadorligining pasayishiga olib kelmoqda.




**1-rasm. 2019-yildan 2024-yilning birinchi yarmiga bo'lgan davrida vagon aylanmasi tuzilmasining elementlar bo'yicha taqsimlanishi, %**

Yuqorida keltirilganlar magistral va sanoat temir yo'l transporti o'zaro hamkorlik texnologiyasini takomillashtirish hamda yuk amallarini jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligini ko'rsatdi. Bu esa, o'z navbatida, yuklarni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish hamda temir yo'l orqali tashishlarning

samaradorligi va sifatini oshirishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning “Sanoat va magistral temir yo'l transportining o'zaro hamkorlik texnologiyasini tadqiq etish” deb nomlangan ikkinchi bobida “O'MK” AJ sanoat temir yo'l transporti korxonasi (STYTK) va “O'TY” AJ ga qarashli tutash stansiyaning o'zaro hamkorlik texnologiyasi bayon etilgan, vagonlarning turib qolishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan, vagon oqimlarining sutkalik notekisligini yuk amallari ostida vagonlarning turib qolishiga ta'sir ko'rsatish darajasini belgilash, yuk obyektlariga vagonlarni uzatish-olib chiqishning optimal ketma-ketligini aniqlash usullari, shuningdek, ularni amalga oshirish algoritm va dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

Vagonlarning turib qolishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida “O'TY” AJga qarashli Bekobod stansiyasi va “O'MK” AJ o'zaro hamkorlik ish texnologiyasi batafsil tahlil qilingan. “O'MK” AJ STYTK faoliyati yuk amallari uchun vagonlarning kelishida mavsumiy va sutkalik notekislikning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi (2-rasm).



**2-rasm. Yuk punktlarida qayta ishlash uchun stansiyaga notekis tarzda kelgan vagonlar soni**

Vagonlarning notekis kelishini hisobga olgan holda vagon aylanmasini bashorat qilish uchun ko'p omilli model ishlab chiqilgan. Buning uchun bashorat qilinayotgan ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatuvchi va o'zaro korrelyatsiyalanmagan quyidagi omillar tanlab olingan:  $y$  – vagon aylanmasi, vagon;  $x_1$  – yuk tushirish hajmi, ming tonna;  $x_2$  – yuk aylanmasi, ming tkm;  $x_3$  – vagonlarning yuk amallari ostida turib qolish vaqti, vagon-soat.  $y$  ni  $x_1$ ,  $x_2$  va  $x_3$  ta'sir qiluvchi omillar yordamida bashorat qilish talab etiladi.

Ko'p o'zgaruvchili chiziqli regressiya tahlili usuli yordamida yuk amallari ostida vagonlarning turib qolishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillarning bog'liqliklari aniqlangan.

$y$  va  $x_3$  o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun chiziqli regressiyadan foydalanilgan.

$y$  ning  $x_3$  ga bog'liqligi 1-jadval yordamida aniqlangan.

#### 1-jadval

##### Vagon aylanmasi va vagonlarning yuk amallari ostida turib qolish vaqti o'rtasidagi bog'liqlikning dispersiya tahlili

Manba	Har bir tahlil komponenti uchun erkinlik darajalari	Tahrirlangan chetlanish kvadratlari yig'indisi	Tahrirlangan o'rtacha chetlashishlar kvadratlari yig'indisi	Fisher koeffitsiyenti	Xatolik ehtimoli
Regressiya	1	5663,32	5663,32	748,40	0,00
Xatolik	28	211,88	7,57	-	-
Umumiy	29	5875,20	-	-	-

$y$  va  $x_3$  o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish uchun chiziqli regressiyadan foydalanilgan (2-jadval).


#### 2-jadval

##### Vagon aylanmasi va vagonlarning yuk amallari ostida turib qolish vaqti o'rtasidagi bog'liqlikning regressiya statistikasi

O'rtacha kvadratik xatolik	Determinatsiya koeffitsiyenti	Tuzatilgan	Bashorat qilingan		
2,75087	96,4%	96,3%	96,4%		
Regressiya tenglamasining qoldiqlari					
O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	Standart xatolik	Statistika	Ahamiyatlilik darajasi	Dispersiyaning inflyatsiya faktori
O'zgarmas	-98,66	0,826	13,94	0,00	-
Vagon turib qolishi	7,716	0,000433	14,50	0,00	1,00

Ushbu bog'liqlikni ifodalovchi regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$y = -98,66 + 7,716 \cdot x_3 \quad (1)$$



**3-rasm. Vagon aylanmasi va vagonlarning yuk amallari ostida turib qolish vaqti o'rtasidagi bog'liqlik grafi**

ekanligini ko'rsatadi. Bu esa vagonlarning yuk amallari ostida turib qolish vaqti vagon aylanmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

Shuningdek,  $y$  ning  $x_1$  ko'rsatkichiga bog'liqligi, ya'ni aniqlangan o'zgaruvchi  $x_1$  o'zgaruvchi  $y$  ga qay darajada ta'sir ko'rsatishi aniqlangan (3 va 4-jadvallar), shuningdek, ushbu bog'liqlikni tavsiflovchi regressiya tenglamasi tuzib chiqilgan.

**3-jadval**

**Vagon aylanmasi va yuk tushirish hajmi o'rtasidagi bog'liqlikning dispersiya tahlili**

Manba	Har bir tahlil komponenti uchun erkinlik darajalari	Tahrirlangan chetlanish kvadratlari yig'indisi	Tahrirlangan o'rtacha chetlashishlar kvadratlari yig'indisi	Fisher koeffitsiyenti	Xatolik ehtimoli
Regressiya	1	5052,6	5052,63	171,99	0,00
Xatolik	28	822,6	29,38	-	-
Umumiy	29	5875,2	-	-	-


**4-jadval**

**Vagon aylanmasi va yuk tushirish hajmi o'rtasidagi bog'liqlikning regressiya statistikasi**

O'rtacha kvadratik xatolik	Determinatsiya koeffitsiyenti	Tuzatilgan	Bashorat qilingan		
5,42010	86,00%	85,50%	84,23%		
Regressiya tenglamasining qoldiqlari					
O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	Standart og'ish	Statistika	Ahamiyatlilik darajasi	Dispersiya
O'zgarvas	-10,38	7,08	-1,46	0,15	-
Tushirish hajmi	0,04866	0,00371	13,11	0,00	1,00

Ushbu bog‘liqlikni ifodalovchi regressiya tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$y = -10,38 + 0,04866 \cdot x_1 \quad (2)$$



**4-rasm. Vagon aylanmasi va yuk tushirish hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik grafigi**

ahamiyatli va kuchli bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Taklif etilgan regressiya modeli yuk tushirish ma’lumotlari asosida vagonlarning yuk amallari ostida turib qolish vaqti bashorat qilish uchun qo‘llanilgan.

Vagon oqimlarining o‘zgaruvchanligi sharoitida, ya’ni vagonlar soni ularning o‘rtacha kunlik kelganidan oshib ketganda, vagonlarning yuk obyektlariga yetkazilishini kutish vaqtini qisqartirish ularni uzatish ketma-ketligi va sonini tezkor rejalashtirish orqali erishiladi.

Vagon guruhlarini uzatish tartibining variantlari yuk obyektlari va manyovr lokomotivlari soniga bog‘liq bo‘lib, matematik kombinatorika nazariyasiga bo‘ysunadi. Matematik kombinatorika nazariyasiga ko‘ra,  $n$  ta obyektga  $k$  ta manyovr lokomotivi orqali vagon guruhlarini yetkazish variantlari soni guruhlash qonuniyatga bo‘ysunadi.

Stansiya navbatchisi manyovr lokomotivlarini shunday taqsimlashi kerakki, yuk obyektlariga vagon guruhlarini yetkazish va olib chiqish amallarini bajarishda lokomotiv tayinlanmagan vagon guruhlarining kutish vaqti (vagon-soatlari)ni minimal darajaga tushirish mumkin bo‘lsin. Bunday holatda, birinchi navbatda kutish vaqti (vagon-soatlari) eng katta bo‘lgan vagon guruhlarini yuk obyektlariga yetkazish talab etiladi.

Manyovr lokomotivlariga biriktirilgan va biriktirilmagan vagon guruhlarini yuk obyektlariga birinchi yetkazishda quyidagi to‘plamlar nazariyasi orqali ifodalash mumkin:

$$N_1 \in \left\{ \begin{matrix} n_1 & n_2 & n_3 & \dots & n_k \\ t_1 & t_2 & t_3 & \dots & t_k \end{matrix} \right\} \quad N_2 \in \left\{ \begin{matrix} n_{k+1} & n_{k+2} & \dots & n_i \\ t_{k+1} & t_{k+2} & \dots & t_i \end{matrix} \right\}. \quad (3)$$

Vagonlarni yuk obyektlariga yetkazish jarayonidagi kutish vaqti quyidagi elementlarga bog'liq:

$$\sum T_{kutish} \in \{T_{kutish 1}, T_{kutish 2}, T_{kutish 3}, \dots, T_{kutish i}\}. \quad (4)$$

Vagon guruhlarining kutish vaqti (vagon-soatlari)ni minimallashtirish bo'yicha to'plamlar nazariyasiga asoslangan maqsadli funksiya quyidagicha bo'ladi:

$$\sum T_{kutish} \rightarrow \min. \quad (5)$$

(5) maqsadli funksiyaning minimal qiymatga erishishi talab etiladi. Maqsadli funksiya minimal qiymatga ega bo'lishi uchun quyida keltirilgan yig'indi minimal darajaga yetishi shart:

$$T_{kutish}^2 = n_{\max k+1} \cdot t_{\min k+1} + n_{\max k+2} \cdot t_{\min k+2} + \dots + n_{\max i} \cdot t_{\min i}, \text{ daq.} \quad (6)$$

$$\left\{ \begin{array}{l} t_{\min k+1}^2 \leq t_{\min k+2}^2 \leq \dots \leq t_{\min i}^2 \\ n_{\max k+1}^2 \geq n_{\max k+2}^2 \geq \dots \geq n_{\max i}^2 \end{array} \right\} \quad (7)$$

bunda  $t - k+1$  dan  $i$  obyektgacha uzatish-olib chiqishga sarflanadigan minimal vaqt. ( $k$  – manyovr lokomotivlar soni;  $i$  – yuk obyektlar soni);

$n - k+1$  dan  $i$  gacha uzgaruvchi vagonlar guruhining maksimal soni.


Vagonlarni yuk obyektlariga yetkazish navbatini avtomatlashtirilgan ravishda hisoblash va vagonlarning stansiyada umumiy turib qolish vaqtini minimallashtirish maqsadida algoritm va *Python* dasturlash tilida dasturiy ta'minot ko'rinishidagi instrumental vosita ishlab chiqilgan. Ushbu dastur rejalashtirish jarayonini avtomatlashtirish, vagonlar va yuk obyektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, stansiyada vagonlarning turib qolish vaqtini qisqartirish hisobiga xarajatlarni kamaytirish, shuningdek, vagon oqimlarining o'zgaruvchanligi sharoitida tashish jarayonida tezkor boshqarishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning “**Yuk amallarini bajarishda kichik mexanizatsiya vositalarini qo'llash**” deb nomlangan uchinchi bobida yuk amallarini kichik mexanizatsiya vositalari yordamida bajarishni jadallashtirish usulini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Bunda “O'MK” AJ STYTKda yarim ochiq vagonlarning tushirish lyuklarini yopishning mavjud usuli yoritilgan, yarim ochiq vagonlarning tushirish lyuklarini mexanizatsiyalashgan holda yopish qurilmasining matematik modeli ishlab chiqilgan, shuningdek, temir yo'l yarim ochiq vagonlarining pastki lyuklarini ko'tarish qurilmasining ishlash tamoyili bayon etilgan.

Temir yo'l yarim ochiq vagonlarining pastki lyuklarini ko'tarish qurilmasining ishlash tamoyiliga asoslangan holda (5-rasm), uning funksional parametrlarini aniqlash uchun matematik model kinetik energiya o'zgarishi haqidagi teoremadan foydalanib ishlab chiqilgan.

Qo'yilgan masalani yechish uchun kinetik energiyaning o'zgarishi haqidagi teorema tenglamasini ko'rib chiqilgan.

$$\sum T = \sum A_i^e. \quad (8)$$



**5-rasm. Temir yo‘l yarim ochiq vagonlarining pastki lyuklarini ko‘tarish qurilmasining ishlash sxemasi:**

$r_2, r_3$  – shesterna vallining katta va kichik radiusi;  $Q$  – yarim ochiq vagon pastki lyukining massasi;  $R_1$  – katta tishli g‘ildirak radiusi;  $l, l_1$  – richag va tros uzunligi;

$M_1, M_2$  – shesternaning katta va kichik vallarida burilishdagi uzatish momenti;

$P_0, P_1, P_2$  – qurilma richagini, shesternaning katta va kichik vallarini aylantirish uchun zarur bo‘lgan kuchlar mos ravishda.

Buning uchun elementning kinetik energiyasini hisoblaymiz:

$$\sum T = T_1 + T_2 + T_3, \text{ J.} \quad (9)$$

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, bajarilgan ishni quyidagicha ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\sum A_i^e = -Q \cdot l_1 + Q \cdot r_2^2 \cdot l_1 = Q \cdot l_1 \cdot (r_2^2 - 1), \text{ J.} \quad (10)$$

(10) ga ko‘ra quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{V_1}{4} \left[ m_1 \cdot h + m_2 \cdot r_2 + \frac{m_3 \cdot r_3 \cdot R_2}{r_2} \right] = Q \cdot l_1 \cdot (r_2^2 - 1) \quad (11)$$

bunda  $h$  – pastki lyukning tushirilgan holatidan to‘liq yopilgan holatigacha bo‘lgan balandligi, m;

$m_1, m_2, m_3$  – mos ravishda katta va kichik shesterna vallarining, yukning massalari, H.

(11) ifoda orqali yukning ko‘tarilish tezligi aniqlanadi:

$$V_1 = \frac{4 \cdot Q \cdot l_1 \cdot (r_2^2 - 1)}{\left[ m_1 \cdot h + m_2 \cdot r_2 + \frac{m_3 \cdot r_3 \cdot R_2}{r_2} \right]}, \text{ m/s}^2. \quad (12)$$

(12) ifodani inobatga olgan holda, lyukni ko‘tarish vaqti quyidagicha aniqlanadi:

$$t = \frac{m_1 \cdot V_1}{Q} = \frac{m_1 \cdot 4 \cdot l_1 \cdot (r_2^2 - 1)}{\left[ m_1 \cdot h + m_2 \cdot r_2 + \frac{m_3 \cdot r_3 \cdot R_2}{r_2} \right]}, \text{ sek.} \quad (13)$$

Burilishdagi  $M_2$  momentini quyidagicha topish mumkin:

$$M_2 = r_2 \cdot Q, N \cdot m. \quad (14)$$

Ikkita blok orasidagi kuchlar teng, demak:

$$M_2 = R_2 \cdot P_2, N \cdot m. \quad (15)$$

(14) va (15) ifodarni tenglashtirib,  $P_2$  kuchini topish mumkin:

$$P_2 = \frac{r_2 \cdot Q}{R_2}, N. \quad (16)$$

Ikkita val orasidagi kuchlar teng bo'lgani ( $P_2 = P_3$ ) uchun, burilishdagi  $M_3$  momentini topish mumkin:

$$M_3 = P_3 \cdot r_3, N \cdot m. \quad (17)$$

Richag  $l$  va  $P_0$  kuch yordamida burilishdagi  $M_3$  moment hosil qilinadi:

$$M_3 = l \cdot P_0, N \cdot m. \quad (18)$$

Shunda  $P_0$  kuch quyidagiga teng bo'ladi:

$$P_0 = \frac{r_2 \cdot r_3 \cdot Q}{R_2 \cdot l}, N. \quad (19)$$



**6-rasm. Yarim ochiq vagon pastki lyuklarini yopish qurilmasining ko'rinishi**

Temir yo'l yarim ochiq vagonlarining pastki lyuklarini yopish qurilmasi (6-rasm) uchun *LPO-23* qo'lda ishlatiladigan barabanli lebyodka pasporti va foydalanish qo'llanmasi ishlab chiqilgan. Natijada, 200 kg gacha yukni ko'tarishini kafolatlovchi *LPO-23* uchun O'zbekiston Respublikasining UZ.SMT.01.0068.91221878-sonli muvofiqlik sertifikatini olingan.

“O'MK” AJda o'tkazilgan xronometrik kuzatishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, qurilma yordamida lyuklarni yopish uchun sarflanadigan o'rtacha vaqt qo'lda bajariladigan usulga nisbatan 4,0 daqiqa (35%) ga kamaygan, bu esa vagon aylanmasini 1,17 soatga qisqartirishga imkon bergan. Shu bilan birga, yuk ortish va tushirish ishlari vaqtida yarim ochiq vagonlarning lyuklarini taklif etilayotgan qurilma yordamida og'irligi 1300 N dan 2100 N gacha bo'lganda yopish uchun zarur bo'lgan kuch mos ravishda 46 N - 66 N ni tashkil etadi, bu esa, yarim ochiq vagon pastki lyuklarini yopishda bir ishchiga tushadigan yukni 7,5-10,8 barobar kamaytirganligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning “**Vagon aylanmasi vaqtini qisqartirish bo'yicha tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi**” deb nomlangan to'rtinchi bobida STYTK va tutashish stansiya hamkorligi takomillashtirilgan texnologiyasining vagon aylanmasiga ta'siri baholangan, uning amalga oshirilishi bo'yicha amaliy tavsiyalarning iqtisodiy samaradorligi hisoblangan.

Vagonlarni yuk obyektlariga yetkazishda turib qolish vaqtining yillik

xarajatlarning avtomatlashtirilgan ravishda rejalashtirish hisobiga tejalgan mablag‘lari quyidagi ifoda bo‘yicha hisoblanadi:

$$E_{y-f}^{ek} = 365 \cdot (n_{ek}^{ish.park} \cdot e_v^{ar.sut} + n_{ek}^{turib} \cdot \Delta t_{ek} \cdot e_{v-s}^{turib}), \text{ so‘m,} \quad (20)$$

bunda  $n_{ek}^{ish.park}$  – tejalgan ishchi park vagonlari soni, vagon;  
 $e_v^{ar.sut}$  – bitta yarim ochiq vagon uchun o‘rtacha kunlik ijara to‘lovi, so‘m;  
 $n_{ek}^{turib}$  – bir sutkada keladigan vagonlar soni, vagon;  
 $\Delta t_{ek}$  – vagonlarni yuk obyektlariga uzatishni avtomatlashtirilgan ravishda rejalashtirish hisobiga tejalgan vaqt, vagon-soat;  
 $e_{v-s}^{turib}$  – vagonlarning turib qolish xarajatlar stavkasi, so‘m.

“O‘MK” AJning “Zavodskaya” stansiyasi misolida o‘tkazilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, vagonlarni yuk obyektlariga yetkazish bo‘yicha avtomatlashtirilgan ravishda rejalashtirish orqali bir uzatma uchun o‘rtacha 12 daqiqani tashkil etadi. “Zavodskaya” stansiyasiga kuniga 4 poyezd kelishini hisobga olsak, bir sutkada 48 daqiqa vaqtни tejjash mumkin. Natijada, vagonlarni yuk obyektlariga joylashtirish vaqtini 12% ga qisqartirish imkoni yaratilgan va 1 ta ishchi vagon parkini tejjashga olib kelgan, bunda yillik 266,8 mln. so‘m iqtisodiy samaradorlikni tashkil etadi.

Temir yo‘l yarim ochiq vagonlarining pastki lyuklarini yopish uchun maxsus qurilma ishlatish natijasida, yarim ochiq vagonlarni tozalash bilan shug‘ullanuvchi ishchilarning mehnat unumdorligining oshishi quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$\eta_{joy} = \frac{T_{toz.}^{front} - T_{toz.}'^{front}}{T_{toz.}^{front}} \cdot 100 \%, \quad (21)$$

bunda  $T_{toz.}^{front}, T_{toz.}'^{front}$  – mos ravishda qo‘lda va taklif qilingan maxsus qurilma yordamida vagonlarni tozalash uchun sarflanadigan vaqt, daqiqa.

“O‘MK” AJ ish sharoitlari uchun o‘tkazilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, temir yo‘l yarim ochiq vagonlarining pastki lyuklarini yopish uchun maxsus qurilma ishlatish ularni tozalash bilan shug‘ullanuvchi ishchilarning mehnat unumdorligini 35% ga oshirishga yordam bergan.

“O‘MK” AJning yarim ochiq vagonlarni tozalash bilan shug‘ullanuvchi ishchilari tomonidan maxsus qurilmani ishlatishi yordamida tejalgan yillik har bir uzatmada vagon turib qolish xarajatlari quyidagi ifoda bo‘yicha hisoblanadi:

$$E_{v-s}^{tur.qol.} = 365 \cdot n \cdot \Delta t_{ek} \cdot e_{v-s}, \text{ so‘m,} \quad (22)$$

bunda  $n$  – sutkalik uzatmalar soni;  
 $\Delta t_{ek}$  – tozalash yo‘llarida vagonlarning kutib qolishidan tejjaladigan vaqt, vagon-soat.

“O‘MK” AJ ish sharoitlari uchun o‘tkazilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, temir yo‘l yarim ochiq vagonlarning pastki lyuklarini yopish uchun maxsus qurilmani ishlatish texnologik amallar davomiyligini qisqartirish orqali kunlik 350 daqiqa vaqt tejjalishiga olib kelgan. Bunda yillik kutilayotgan iqtisodiy

samaradorlik vagonlarning ortiqcha turib qolish vaqtini qisqartirish hisobiga 351,3 mln. so‘mni tashkil etadi.

Shunday qilib, vagonlarni yuk obyektlariga yetkazishni avtomatlashtirilgan ravishda rejalashtirish va temir yo‘l yarim ochiq vagonlarning pastki lyuklarini yopish uchun maxsus qurilmani qo‘llash orqali ishchi vagon parkini tejash va ularni ortiqcha turib qolish vaqtini qisqartirish natijasida olingan umumiy yillik iqtisodiy samaradorlik 618,1 mln. so‘mni tashkil etadi.

## XULOSA

“Temir yo‘llarning stansiya va yuk ishlarini tashkil etish transport jarayonlari texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining tadqiqot natijalari bo‘yicha quyidagi xulosalar taqdim etilgan:

1. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiadorlik jamiyatining vagon aylanmasi tuzilmasi tahlili o‘tgan yillar davomida vagonlarning yuk amallarida turib qolish o‘rtacha vaqti 39%dan 44%gacha (5% ga) oshganligini ko‘rsatgan vaqtida yuk vagonlari parki balansining prognoz ko‘rsatkichlari tahlili 2024 yildan 2027 yilgacha bo‘lgan davrda yuk vagonlari parkiga bo‘lgan ehtiyoj 3,9 barobarga oshganligini ko‘rsatgan, bu esa yuklarni yetkazib berish muddatlarining uzayishi va temir yo‘l transporti raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelgan.

2. Yuk amallarida vagonlarning turish vaqtiga vagon oqimlari sutkalik notekisligining ta’siri vagon aylanmasini prognozlashning ko‘p omilli modeli yordamida ko‘p o‘lchamli obyektlarning korrelyatsion-regressiya tahlili orqali asoslangan bo‘lib, u asosiy o‘zgaruvchilar o‘rtasida determinatsiya koeffitsiyenti 0,96 ga teng bo‘lgan kuchli korrelyatsiya mavjudligini ko‘rsatgan. Natijada sanoat temir yo‘l transporti korxonasi va tutash stansiya o‘zaro hamkorligi sharoitida vagon aylanmasining yuk amallari ostida turib qolish vaqtiga ta’sirini aniqlash imkoni paydo bo‘lgan hamda yuk oqimi hajmiga bog‘liq ravishda shoxobcha temir yo‘llaridan foydalanish shartnomasining amal qilish muddatini qayta ko‘rib chiqish tavsiya etilgan.

3. Yuk obyektlariga vagonlarni uzatish ketma-ketligini aniqlash usuli to‘plamlar nazariyasi yordamida texnologik amallarning bajarilishini kutishdagi ortiqcha turib qolishlarni minimallashtirish asosida ishlab chiqilgan, shuningdek uni avtomatlashtirilgan tarzda hisoblashning algoritmi va *Python* dasturlash tilida dasturiy ta’minot ko‘rinishidagi instrumental vositasi yaratilgan. Bu usulni tatbiq etish harakatni boshqarish tizimlarini integratsiyalash, avtomatlashgan tarzda rejalarni yangilash va turib qolish vaqtlarini prognozlash, dinamik o‘zgarishlar sharoitida rejalashtirishning moslashuvchanligini ta’minlash imkonini beradi. Ushbu dasturni “O‘zmetkombinat” AJning sanoat temir yo‘l transportida qo‘llash orqali vagonlarni yuk frontlariga joylashtirish amallarining davomiyligini 12% ga kamaytirish orqali vagonlarning turib qolishini qisqartirish imkonini bergan.

4. Yarim ochiq vagonlarning pastki lyuklarini mexanizatsiyalashgan holda yopish qurilmasining harakat vaqti va ko‘tarish tezligi hamda qurilma dastagiga qo‘yiladigan minimal kuchni aniqlashning matematik modeli kinetik energiyaning

o'zgarish teoremasi asosida ishlab chiqilgan. Ushbu model bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, yarim ochiq vagonlar pastki lyuklarini mexanizatsiyalashgan usulda yopish orqali vagonlarni uzatishlar soni 50% va tegishli amallarni bajarish vaqti qo'lda bajarilish usuliga nisbatan qisqargan hamda vagonlarni tozalashda band xodimlarning mehnat unumdorligi 35% oshgan.

5. Temir yo'l yarim ochiq vagonlarining pastki lyuklarini yopish qurilmasi uchun *LPO-23* qo'lda ishlatiladigan barabanli lebyodka pasporti va foydalanish qo'llanmasi ishlab chiqilgan. 200 kg gacha yukni ko'tarishini kafolatlovchi *LPO-23* uchun O'zbekiston Respublikasining UZ.SMT.01.0068.91221878-sonli muvofiqlik sertifikatini olingan, ushbu qurilmani qo'llash bitta ishchining jismoniy yuklamasini 7,5-10,8 barobargacha kamaytiradi.

6. Temir yo'l yarim ochiq vagonlarining pastki lyuklarini yopish usuli taklif qilingan, bu esa yuk tushirish ishlarining xavfsizlik va samaradorlik darajasini oshiradi (2023-yil 15-dekabrda 8227-sonli foydali modelga patent). Mobil qurilmadan foydalanish yuk ortish-tushirish ishlari bo'yicha yuk tashuvchilar uchun ishchi xodimlar jarohatlanish xavfini minimal darajaga tushirish, qulflash mexanizmlari bilan manipulyatsiyalarni amalga oshirish vaqtida yarim ochiq vagon ostida bo'lish zaruriyatini bartaraf etish, xavfsizlik qoidalariga muvofiq yuk ishlarini tashkil etish imkonini bergan.

7. Tadqiqot natijalari "O'zbekiston temir yo'llari" AJ va "O'zmetkombinat" AJning magistral va sanoat temir yo'l korxonalarida joriy etilgan, bunda yuk frontlariga vagonlarni uzatishlar ketma-ketligini avtomatlashtirilgan ravishda rejalashtirish va ko'tarish-transport uskunalaridan foydalangan holda yuk amallarini jadallashtirish hisobiga temir yo'llarning stansiya va yuk tashish ishlarini samarali tashkil etish bo'yicha kompleks amaliy tadbirlar ishlab chiqilgan. Yuklash va tushirish frontlarida vagonlarni yetkazib berishni avtomatlashtirilgan ravishda rejalashtirish dasturi hamda yarim ochiq vagon pastki lyuklarini yopish uchun maxsus qurilmani joriy etishdan kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 618,1 mln. so'mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
PhD.15/31.08.2022.Т.73.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**КАЮМОВ ШОХРУХ ШАРОФ УГЛИ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ТРАНСПОРТНЫХ  
ПРОЦЕССОВ В ОРГАНИЗАЦИИ СТАЦИОННЫХ И ГРУЗОВЫХ  
РАБОТ ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ**

**05.08.03 – Эксплуатация железнодорожного транспорта**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Ташкент – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером №B2023.2.PhD/T3751.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Расулов Маруфджан Халикович**  
кандидат технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Рахмангулов Александр Нельевич**  
доктор технических наук, доцент

**Махкамов Алимжон Хамдамович**  
доктор философии по техническим наукам, доцент


**Ведущая организация:**

**Андижанский государственный технический институт**

Защита диссертации состоится 19 апреля 2025 года в 11<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.15/31.08.2022.T.73.01 при Ташкентском государственном транспортном университете. Адрес: 100167, г. Ташкент, ул. Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54; e-mail: [rektorat@tstu.uz](mailto:rektorat@tstu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (регистрационный номер – 234). Адрес: 100167, г. Ташкент, ул. Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66.

Автореферат диссертации разослан 2 апреля 2025 года.  
(реестр протокола рассылки №62 от 2 апреля 2025 года).



**Ж.Ф. Курбанов**  
Председатель Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.т.н., профессор

**Ш.М. Суюнбаев**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.т.н., профессор

**Д.Х. Баратов**  
Председатель Научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
учёных степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире особое внимание уделяется повышению эффективности работы и росту производительности труда на транспортных предприятиях, включая железнодорожный транспорт за счет подъема уровня комплексной оптимизации погрузочно-разгрузочных, ремонтных работ, уменьшения непроизводительных простоев вагонов на станциях и интенсификации технологических процессов. В мировом масштабе уровень механизации погрузочно-разгрузочных работ составляет 20-30%<sup>1</sup>, следовательно возникает необходимость автоматизации складских работ на станциях прибытия и отправления вагонов для повышения эффективности систем доставки грузов. В связи с этим особое внимание уделяется совершенствованию технологических процессов грузовых операций на магистральном и промышленном железнодорожном транспорте, позволяющих решать задачи сохранности перевозимых грузов, обеспечения личной безопасности работников предприятий и создания здоровых условий труда.

В мире в целях повышения конкурентоспособности железных дорог и предоставления более качественных услуг клиентам проводятся научно-исследовательские работы, ориентированные на оптимизацию взаимодействия магистрального железнодорожного транспорта и промышленных предприятий, решение вопросов нормативного, правового, а также технологического регулирования железнодорожного транспорта, модернизацию станций на примыканиях при обслуживании объектов промышленного транспорта, повышение их функциональной надежности, минимизацию простоев вагонов и увеличения пропускной способности инфраструктуры. В этом направлении, в частности, особое значение имеет проведение исследований по совершенствованию технологических процессов в организации станционных работ на магистральном транспорте, с одной стороны, и грузовых операций промышленных предприятий железнодорожного транспорта – с другой, а также на развитие методов обслуживания путей необщего пользования. Вместе с тем, одной из актуальных задач является разработка способов автоматизации расчетов по определению оптимальной очередности подач вагонов на грузовые объекты и интенсификации грузовых операций с помощью средств малой механизации, позволяющих уменьшению межоперационных простоев подвижного состава и затратам ручного малоквалифицированного, тяжелого физического труда.

